

**Toshkent davlat agrar universitetida “Inklyuziv media klubi”ni
takshil etish bo'yicha
YO'RIQNOMA**

1. Maqsad va vazifalari

Toshkent davlat agrar universitetida (Inklyuziv media klubi” keying orinlarda - Klub) deb ataladi.

Nogironligi bo'lgan va sog'lom talabalar o'rtasida teng imkoniyatli ta'lim muhitini yaratish, media vositalari orqali inklyuzivlik g'oyasini targ'ib qilish, talabalarda ijtimoiy faollik va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantirish hamda axborot makonida stigmalar va diskriminatsiyaga qarshi ijobiy misollarni ko'rsatishdan iborat.

2. Klubning asosiy yo'nalishlari

Media kontent tayyorlash (videoroliklar, maqolalar, podkastlar, ijtimoiy reklama), ijtimoiy aksiya va fleshmoblar (inklyuzivlik, tenglik va barqaror rivojlanish mavzusida) tayyorlash, talabalar va mutaxassislar ishtirokida ochiq muloqot, munozara va forumlar tashkil etish, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish.

3. Tashkiliy tuzilma

Media klub rahbari (koordinator) – universitet rahbariyati tomoanidan tasdiqlanadi.

Maslahatchi ustozlar – axborot xizmati rahbari

4. Faoliyat shakllari

Ijtimoiy videoroliklar tayyorlash (“Birga kuchlimiz”, “Barcha uchun teng imkoniyat” mavzusida).

Talabalar, ustozlar, mutaxassislar fikri asosida intervyu va maqolalar tayyorlash.

Ijtimoiy tarmoqlarda sahifa ochish va muntazam kontent joylashtirib berish.

“Inklyuziv muhit ko'zim bilan” mavzusida ko'rgazma va fotokonkurslar tashkil etish.

Inklyuziv ta'lim mavzusida ochiq darslar va seminarlar o'tkazib borish.

5. Infratuzilma

Universitetda zarur texnika vositalari bilan to'liq jihozlangan maxsus xona ajratish.